



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI
O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
ABU RAYHON BERUNIY NOMLI SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
AXBOROT XATI

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi bo'limi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik instituti **2024-yil 7-fevral kuni** buyuk mutafakkir shoir, davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy tavalludining 583 yilligi munosabati bilan **"ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMUY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI"** (**№69**) mavzuida **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya** o'tkazilishini ma'lum qiladi. Xalqaro konferensiya materiallari **Google Scholar (Google Akademiya)** ilmiy qidiruv tizimida indeksatsiya bo'ladi. To'plam va har bir maqolaga **DOI raqam hamda sertifikat** beriladi. Anjumanda ITM xodimlari, OTMlarning professor-o'qituvchilari, magistrantlari hamda barcha tadqiqotchilar ishtirok etishlari mumkin. **Konferensiya materiallari Google Scholar, Cyberleninka, ResearchBib, Internet Archive, SJIF, Index Copernicus, IJIFACTOR, DRJI, Cite-Factor, SIS, GIF, ASI, ROAD, UIF va boshqa 10 dan ortiq xalqaro bazalarda indekslanadi.**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha maqola va ilmiy axborot (tezis)lar qabul qilinadi:

- Alisher Navoiy va tilshunoslik masalalari**
- Alisher Navoiy va xalq og'zaki ijodi**
- Alisher Navoiy va mumtoz adabiyot**
- Alisher Navoiy va zamonaviy o'zbek adabiyoti**
- Alisher Navoiy asarlari poetikasi**
- Alisher Navoiy asarlarining manbalari**
- Navoiyshunoslik muammolari**

Maqola rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar:

- maqolalar konferensiya yo'nalishlariga oid dolzarb mavzularda, teran ilmiy tahlillarga asoslangan va tahrir qilingan bo'lishi lozim;

- maqola nomidan so'ng 1,5 interval oraliqda muallifning ismi, sharifi, ilmiy darajasi va unvoni, lavozimi, e-mail adresi, telefon raqami (mobil), muassasaning nomi to'liq ko'rsatiladi.

- maqola annotatsiyasi (o'zbek, rus va ingliz tillarida) matndan oldin yozilishi lozim. Annotatsiyadan so'ng kamida 5-7 ta kalit so'z (o'zbek, rus va ingliz tillarida) keltirilishi shart. Maqola matni kalit so'zlardan keyin ikki interval pastdan beriladi. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati matn oxirida ko'rsatiladi;

- maqola matni MS WORD 2007, Times New Roman shriftida, 14 kegel kattaligida 1,5 intervalda, lotin alifbosida, 5 betdan kam bo'limgan hajmda bo'lishi lozim;

- maqola A-4 o'lchovdagi qog'ozda yuqori va pastdan 2 sm., chapdan 2,5 sm., o'ngdan 2 sm.da bo'lishi zarur; maqolalar elektron shaklda qabul qilinadi;

- talabga javob bermaydigan maqolalar chop etilmaydi hamda muallifga qaytarilmaydi.

Anjumanning ishchi tili: o'zbek, turk, ingliz va rus tillari.

Maqolalar 2024-yil 10-yanvarga qadar 69-anjuman@mail.ru elektron pochtasi yoki 69-AN'ANAVIY ANJUMAN (ALISHER NAVOIY) telegram kanali orqali qabul qilinadi.

Murojaat uchun telefonlar: +998911478739, +998909633149, +998973344674, +998910121297

Konferensiya materiallari to'plam shaklida nashr etiladi va har bir ishtirokchiga sertifikat taqdim qilinadi. To'plam, sertifikat va boshqa tashkiliy masalalar uchun maqolaning har bir sahifasiga 30 000 so'm miqdorida mualliflik to'lov badali belgilangan (DOI raqami olishni istagan mualliflar qo'shimcha 50 000 so'm to'lov qilishlari kerak bo'ladi).

Ilmiy anjuman 2024-yil 7-fevral kuni soat 10:00 da boshlanadi. Anjumanda bevosita va bilvosita (zoom dasturi orqali) ishtirok etish mumkin. Zoom havolasi va taklifnoma-dastur yuqorida ko'rsatilgan telegram kanalida anjumandan 5 kun oldin e'lon qilinadi.

Maqolani shakllantirishda quyidagi namunadan foydlanish mumkin:

**MAQOLANING NOMI
(14 O'LCHAMDA QALIN, KATTA HARFLI FORMATDA O'RTADA JOYLASHISHI
LOZIM (ILTIMOS, BU SHAKLNI O'ZGARTIRMANG)**

Muallifning ismi, sharifi, familiyasi

Ish joyi

Elektron pochta manzili

ANNOTATSIYA

Annotatsiya berilgan shakl va ko‘rinishda bo‘lishi lozim (Iltimos, bu shaklni o‘zgartirmang). Annotatsiya 150-200 bosma belgidan iborat bo‘lishi lozim. Annotatsiya (ingliz tilida ABSTRACT) va kalit so‘zlar (keywords) xalqaro tizimlarda indekslanishi uchun ingliz tilida ham berilishi zarur.

Kalit so‘zlar: bu yerga 5-10 so‘zdan iborat maqoladagi asosiy urg‘u olgan atamalarni yozish maqsadga muvofiq.

(rus va ingliz tilida ham berilishi lozim)

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES) (KATTA HARFLARDA 14 o'Ichamda, Times New Roman bosma shaklda)

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. I jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. – 778 b.
 2. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. III jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. – 792 b.
 3. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. IV jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. – 786 b.
 4. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. IX jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. – 766 b.